Tax Revenues and Budget Allocation: The Impact of Tax Revenues on the Economy in Uzbekistan and Indonesia.....	875
Vafoeva Sevinch, Umarova Zulaykho	
Erkin iqtisodiy zonalar – rivojlanishning muhim omili.....	879
Axtamova Parizod Oybek qizi	
The significance and impact of contemporary tourism infrastructure in boosting a country's tourism potential	883
Matkabillova Diloram Khalilullayevna	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	887
Abduvaliyev S.A.	
Yangi iqtisodiy tizimda barqaror ish bilan bandlik konsepsiyasini ishlab chiqish va unga oid global tajribalar.....	892
Xoliyorova Shoxista Qaxramon qizi	
Bo'lajak pedagog-o'qituvchining innovatsion faoliyati modeliga asoslangan xolda ta'lim-tarbiya metodlari va vazifalarini o'rgatish.....	898
Abdullaeva Sanobar Berdievna	
O'zbekiston to'qimachilik klasterlari orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash	903
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahlilining ilmiy asoslari	909
G.J.Jumayeva	
Интеграция современных концепций управленческого учета в учетно-аналитическую практику вузовских научных учреждений в Узбекистане.....	912
Каршиева Мохинур Олим кизи	
O'zbekiston sug'urta amaliyotida umr davomiyligi funksiyalarini aniqlashda aktuar hisoblarning o'rni.....	916
Abdujalilova Guzal Saydillayevna	
Инструменты фондового рынка в международной практике повышения инвестиционной привлекательности бизнеса	921
Юлдуз Усманова	
O'zbekiston respublikasi moliya-kredit tizimidagi muammolari va ustuvor yo'nalish istiqbollari.....	931
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
O'zbekistonning fiskal va monetar siyosati tashqi savdo defitsiti o'sishiga ta'siri	935
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
The accounting system in trade organizations, as well as the classification of income in trade.....	941
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish omillari va ularning tahlili	947
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li	
Mehmonxona restoranlarida xodimlar malakasini oshirish tizimi va ularning samaradorlikka ta'siri	954
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari va mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar	958
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	
Yog'-moy korxonalari personalini boshqarishning ahamiyatli jihatlari.....	963
Azlarova D.A.	
Mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirishda hokimliklarning vakolatlarini oshirish masalalari	967
Tuychiev Kamoliddin	
O'zbekiston yengil sanoat korxonalarida marketing strategiyalari	974
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
Innovative technologies of modern accounting and their impact on efficiency	979
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Роль телекоммуникации в экономике Республики Узбекистан	983
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Роль финансов в Узбекистане на современном этапе	987
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Mahalliy budjetlarni boshqarish va tuzish tartibi	992
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari.....	997
Urazaliyev Kamoliddin Tajikovich	
Soliq xulq-atvorini shakllantirishda davlat dasturlari va vositalarining roli.....	1003
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishda raqamli banklarning ulushi.....	1011
O'lmasov Abdurahmon Aziz o'g'li	



O'ZBEKISTON BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI BANKLARNING ULUSHI

O'lmasov Abdurahmon Aziz o'g'li

Alfraganus universiteti magistranti

ORCID: 0009-0006-6188-1261

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari va raqamli banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Tadqiqot doirasida banklarning ustav kapitali, jamlanma balansi, likvidlik darajasi, kredit portfeli va depozitlari kabi mezonlar asosida tahlil o'tkazildi. Metod sifatida statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, grafik usullar va taqqoslama yondashuv qo'llanildi. Olingan natijalar raqamli banklar an'anaviy tijorat banklariga nisbatan bir qancha ustunliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, raqamli banklar yuqori texnologik yechimlar asosida mijozlarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirayotgani aniqlangan. Mazkur xulosa bank tizimining raqamlashtirishga yo'naltirilgan islohoti samaradorligini baholashda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kredit, likvidlik darajasi, depozitlar, raqamli bank.

Abstract: This article presents a comparative analysis of key financial indicators of commercial and digital banks operating in the Republic of Uzbekistan. The study focuses on parameters such as authorized capital, aggregate balance sheet, liquidity level, loan volume, and deposits. The methodology includes statistical analysis, data visualization, and a comparative approach. The findings reveal that digital banks offer several advantages over traditional commercial banks, particularly in improving customer service efficiency through the adoption of innovative technologies. These insights are important for evaluating the effectiveness of banking sector digitalization reforms in Uzbekistan.

Key words: commercial bank, loan, liquidity level, deposits, digital bank.

Аннотация: В статье проведен сравнительный анализ ключевых финансовых показателей коммерческих и цифровых банков, функционирующих в Республике Узбекистан. Исследование охватывает такие критерии, как уставной капитал, совокупный баланс, уровень ликвидности, объем выданных кредитов и объем депозитов. Методологическая база включает статистический анализ, визуализацию данных и сравнительный подход. Результаты показывают, что цифровые банки обладают рядом преимуществ перед традиционными коммерческими банками, особенно в части повышения эффективности обслуживания клиентов за счет внедрения инновационных технологий. Выводы исследования актуальны для оценки успешности процессов цифровизации банковского сектора в стране.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредит, уровень ликвидности, депозиты, цифровой банк.

KIRISH

Mamlakatimizda shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi ta'sir doirasi ortib borayotgan bir paytda, bank sohasida xizmat islohotlarini jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish maqsadlari "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilab qo'yilgan. Unda bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, banklarni xususiyashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish hamda bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish belgilab qo'yilgan.¹

"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida bitta savdo maydonchasida keng ko'lamli bank va bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni (qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, sug'urta va boshqalar) taqdim etishga yo'naltirilgan moliyaviy supermarketlar biznes modelini yaratish, hamda tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, SMS-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish ko'lamini va sifatini oshirish belgilab qo'yilgan.²

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'siri bo'yicha ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, D. Bell, Ye. Toffler va J. Gelbreytlarning asarlarida postindustrial jamiyat qurilishi, A. Lyuis, G. Ranis va J. Feylarning tadqiqotlarida esa iqtisodiy taraqqiyotga erishishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish nazariyalari ishlab chiqilgan.

Shu bilan bir qatorda, D. Kuchera, D. Restuchcha, D. Rodrik, K. Sepulveda, L. Roncolato, M. Duarte, M. Makmillan va Z. Goshin kabi olimlar innovatsion iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'zgarishlar samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Ularning ishlari zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va tarkibiy islohotlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, statistik, guruhlash, taqqoslash hamda omilli tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, taqqoslash usuli korxona faoliyatini tahlil qilishda asosiy usullardan biri hisoblanadi va moliyaviy natijalarni tahlil etishda keng qo'llaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarini jami soni va ustav kapitali miqdoriga ko'ra guruhlab ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2023–yilda O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan banklar soni 35 tani tashkil etgan bo'lib, ularning umumiy ustav kapitali 63,8 trln so'mni tashkil qilgan. Keyingi 2024–yil holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan banklar soni 36 taga yetgan va ularning ustav kapitali 76,1 trln so'mni tashkil etgan.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinganda, 2023–yilda ustav kapitali 350 mlrd so'mgacha bo'lgan banklar soni 12 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2024–yilda esa bu toifadagi banklar soni 5 taga kamaygan. Bu esa bank sektorida kapital bazasi mustahkam bo'lgan yirik banklarning nisbatan ortib borayotganini anglatadi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari jami va ustav kapitali miqdori bo'yicha guruhlanishi³.

Ko'rsatkichlar nomi	Jami	shulardan:											
		350 mlrd. so'mgacha	350 dan 500 mlrd. so'mgacha	500 mlrd. so'mdan 1 trln. so'mgacha	1 trln. so'mdan 2 trln. so'mgacha	2 trln. so'mdan 5 trln. so'mgacha	5 trln. so'm va undan yuqori						
	banklar soni	summa (trln. so'm)	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni	ulushi, foizda	soni
01.10.2023 y.													
Jami kapital	35	89 030	10	2,3%	3	1,5%	4	3,5%	4	6,1%	8	25,8%	6
shundan, ustav kapitali	35	63 819	12	3,9%	6	3,7%	4	3,5%	6	12,3%	3	17,5%	4
01.10.2024 y.													
Jami kapital	36	109 170	6	1,3%	5	1,9%	4	2,3%	7	9,7%	7	22,2%	7
shundan, ustav kapitali	36	76 166	5	1,3%	9	4,5%	8	6,3%	5	8,9%	5	22,7%	4

Ustav kapitali 350 mlrd so'mdan 500 mlrd so'mgacha bo'lgan banklar soni 2023–yilda 6 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda ushbu oraliqda ustav kapitaliga ega bo'lgan banklar soni 9 taga yetgan. Ustav kapitali 500 mlrd so'mdan 1 trln so'mgacha bo'lgan banklar soni 2023–yilda 4 ta bo'lgan bo'lsa, 2024–yilda kelib ularning soni 2 baravarga ortib, 8 taga yetganini ko'rish mumkin.

Ustav kapitali 1 trln so'mdan 2 trln so'mgacha bo'lgan banklar soni 2023–yilda 6 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda bu ko'rsatkich 5 taga kamaygan. Shu bilan birga, ustav kapitali 2 trln so'mdan 5 trln so'mgacha bo'lgan banklar soni 2023–yilda 3 ta bo'lgan bo'lsa, 2024–yilda ularning soni 5 taga yetgan. Ustav kapitali 5 trln so'm va undan yuqori bo'lgan banklar soni esa 2023–yilda 4 ta bo'lgan va 2024–yilda ham bu ko'rsatkichda hech qanday o'zgarish kuzatilmagan.

3 O'ZR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/869402/>



Statistik ma'lumotlarning keyingi qismida tijorat banklarining jamlanma balansida jami aktivlar qiymati 2023–yilda 615 802 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda bu ko'rsatkich 738 721 trln so'mga yetganini ko'rish mumkin. 2023–yil holatiga ko'ra, aktivlarning eng katta ulushi kredit qo'yilmalariga to'g'ri kelgan. 2024–yilda esa investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'rsatkichlar eng yuqori ulushga ega bo'lgan(2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklari jamlanma balans⁴.

Ko'rsatkichlar nomi	01.10.2023 y.		01.10.2024 y.		O'zgarishi, foizda
	trln. so'm	ulushi, foizda	trln. so'm	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	18 635	3,0%	22 419	3,0%	20%
Markaziy bankdagi mablag'lar	24 725	4,0%	26 142	3,5%	6%
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	25 594	4,2%	32 924	4,5%	29%
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	32 487	5,3%	35 890	4,9%	10%
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	30 423	4,9%	55 910	7,6%	84%
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1 917	0,3%	997	0,1%	-48%
Kredit qo'yilmalari, (sof)	436 528	70,9%	500 135	67,7%	15%
Asosiy vositalar, (sof)	17 235	2,8%	22 850	3,1%	33%
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	17 315	2,8%	24 499	3,3%	41%
Bankning boshqa xususiy mulklari	3 788	0,6%	6 164	0,8%	63%
Boshqa aktivlar	7 155	1,2%	10 791	1,5%	51%
Jami aktivlar	615 802	100%	738 721	100%	20%
Majburiyatlar					
Depozitlar	221 335	42,0%	286 947	45,6%	30%
Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	955	0,2%	1 240	0,2%	30%
Boshqa banklarning mablag'lari-rezident	26 176	5,0%	28 665	4,6%	10%
Boshqa banklarning mablag'lari-norezident	23 119	4,4%	18 898	3,0%	-18%
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	215 466	40,9%	232 235	36,9%	8%
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	12 994	2,5%	23 806	3,8%	83%
Subordinar qarzlar	8 833	1,7%	12 746	2,0%	44%
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	7 617	1,4%	8 976	1,4%	18%
Boshqa majburiyatlar	10 278	2,0%	16 037	2,5%	56%
Jami majburiyatlar	526 772	100%	629 551	100%	20%
Jami kapital					
Ustav kapitali	63 819	71,7%	76 166	69,8%	19%
Qo'shimcha kapital	1 039	1,2%	1 402	1,3%	35%
Zaxira kapitali	10 682	12,0%	12 734	11,7%	19%
Taqsimlanmagan foyda	13 490	15,2%	18 867	17,3%	40%


Majburiyatlar kesimida 2023–yilda banklar jami 526 trln so'mlik majburiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 2024–yilda bu ko'rsatkich 629 trln so'mga yetgani kuzatilmoqda. Ushbu majburiyatlar tarkibida 2023–yilda olingan kreditlar va lizing operatsiyalari bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori foiz ulushiga ega bo'lgan. 2024–yilda esa boshqa majburiyatlar bo'yicha ko'rsatkich yuqori foiz ulushini tashkil etgani qayd etilgan.

Tadqiqotimizning keyingi yo'nalishi banklarning likvidlilik darajasini tahlil qilishga qaratildi. Avvalo, bank likvidligi – bu bank aktivlarining o'sishini moliyalashtirish va kutilmagan (nomaqbul) yo'qotishlarsiz, mavjud majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyatini bildiradi.

4 O'zR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124991/>




Keyingi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023–yil yakunida banklarning yuqori likvidli aktivlari 83 961 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 124 653 trln so'mga yetgan(1-rasm).



1-Rasm. Bank tizimi likvidlilik dinamikasi⁵.

“Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati” 2023–yilda 13,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda ushbu ko'rsatkich 16,9 % ga yetganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, “Likvidlilikni qoplash me'yori” ko'rsatkichi 2023–yilda 161,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda bu ko'rsatkich 183,4 % ga yetganini ko'rsatmoqda(2-rasm).



2-rasm. Bank tizimi likvidlilik dinamikasi⁶.


“Sof barqaror moliyalashtirish me'yori” ko'rsatkichi bo'yicha 2023–yilda 111,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024–yilda bu ko'rsatkich 116,3 % ga oshganini ko'rish mumkin. “Lahzali likvidlilik me'yori” ko'rsatkichi esa 2023–yilda 82,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024–yilda 113,7 % ga ko'paygan.

Hozirgi kunda respublikamizda davlat ulushiga ega bo'lgan banklar soni 9 tani tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat: O'zmilliybank, O'zsanoatqurilishbank, Agrobank, Asaka bank, Xalq banki, Biznesni rivojlantirish banki, Mikrokreditbank, Turonbank va Aloqabank.

O'zmilliybankning 2024–yil holatiga ko'ra jami kreditlar miqdori 105 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 17,2 trln so'm jismoniy shaxslarga, 88 trln so'm esa yuridik shaxslarga ajratilgan. Ushbu bankning depozitlari jismoniy shaxslar bo'yicha 45,9 trln so'mni, yuridik shaxslar bo'yicha esa 100 trln so'mni tashkil etgan(3-rasm).

5 O'zR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124982/>


6 O'zR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124982/>



3-rasm. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarining kreditlar to'g'risida ma'lumot⁷.

O'zsanoatqurilishbank ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bankning jami kreditlari 62,9 trln so'mni tashkil etib, shundan 9,6 trln so'm jismoniy shaxslarga, 53,3 trln so'm esa yuridik shaxslarga ajratilgan.

Bankning jami depozitlari qiymati 17,9 trln so'mni tashkil qilgan bo'lib, undan 5,4 trln so'm jismoniy shaxslarning, 12,4 trln so'm esa yuridik shaxslarning ulushiga to'g'ri kelmoqda(4-rasm).



4-rasm. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarining depozitlar to'g'risida ma'lumot (trln. so'm)⁸


Agrobankning jami kreditlar miqdori 59,9 trln so'mni tashkil etib, shundan 8,6 trln so'm jismoniy shaxslarning, 51,3 trln so'm esa yuridik shaxslarning ulushiga to'g'ri keladi. Ushbu bankning jami depozitlari 19,1 trln so'mni tashkil qilgan bo'lib, undan 8,4 trln so'm jismoniy shaxslar, 10,7 trln so'm esa yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri kelganini ko'rsatmoqda.

Nodavlat tijorat banklaridagi kreditlar miqdori bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Ipoteka-bank tomonidan ajratilgan jami kreditlar miqdori 35,2 trln so'mni tashkil etgan. Shundan 23,4 trln so'm jismoniy shaxslarga, qolgan 11,8 trln so'm esa yuridik shaxslarga ajratilgan.

Keyingi o'rinda Kapitalbank turibdi. Ushbu bank tomonidan 30,1 trln so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, shundan 17,7 trln so'm jismoniy shaxslarga, 12,3 trln so'm esa yuridik shaxslarga to'g'ri kelganini ko'rish mumkin(5-rasm).

⁷ O'ZR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124980/>

⁸ O'ZR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124993/>

5-rasm. Nodavlat tijorat banklarining kreditlar to'g'risida 2024-yil 1-oktabr holatiga ma'lumot trln. so'm⁹

Hamkorbank tomonidan 2024-yilda 18,4 trln so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, shundan 7,9 trln so'm jismoniy shaxslarga, 10,4 trln so'm esa yuridik shaxslarga to'g'ri keladi.


Ipak Yo'li banki tomonidan esa jami 13,8 trln so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, ulardan 3,9 trln so'm jismoniy shaxslarga, qolgan 9,9 trln so'm yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan.

Keyingi tahlil ko'rsatkichimiz nodavlat tijorat banklaridagi depozitlar holatiga taalluqlidir. Unga ko'ra, eng katta depozit hajmi Kapitalbankka tegishli bo'lib, 33,9 trln so'mni tashkil etgan. Ushbu mablag'larning 20,1 trln so'm jismoniy shaxslar, 13,8 trln so'm esa yuridik shaxslar ulushiga to'g'ri kelgan.

Keyingi o'rinda Ipoteka-bank turibdi. Undagi jami depozitlar qiymati 22,7 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 4,5 trln so'm jismoniy shaxslarga, qolgan 17,9 trln so'm esa yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan.

Anorbank tomonidan 6,09 trln so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, ulardan 4,7 trln so'm jismoniy shaxslarga, 1,3 trln so'm esa yuridik shaxslarga ajratilganini ko'rish mumkin.

Keyingi o'rinda TBC Bank turibdi. Ushbu bank tomonidan jami 6,09 trln so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, ulardan 367 mlrd so'm yuridik shaxslarga ajratilgan(6-rasm).

6-rasm. Raqamli banklarining kreditlar to'g'risida ma'lumot trln. so'm¹⁰

Avo banki tomonidan ajratilgan jami kreditlar miqdori 212 mlrd so'mni tashkil etib, shundan 200 mlrd so'm jismoniy shaxslarga, 12 mlrd so'm esa yuridik shaxslarga ajratilganini ko'rish mumkin.

9 O'zR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124993/>


10 O'zR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124992/>



Apeks banki tomonidan esa 184 mlrd so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, ulardan 4 mlrd so'm jismoniy shaxslarga, qolgan 180 mlrd so'm esa yuridik shaxslarga to'g'ri kelgan.

Uzum banki tomonidan jami 75 mlrd so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'ning barchasi yuridik shaxslarga taalluqli ekani ko'rsatilgan.

Smart banki tomonidan esa 2 mlrd so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lib, ularning barchasi faqat jismoniy shaxslarga ajratilganini ko'rishimiz mumkin(7-rasm).



7-rasm. Nodavlat tijorat banklarining depozitlar to'g'risida ma'lumot trln. so'm.


Keyingi o'rinda Ipak Yo'li banki turibdi. Ushbu bank tomonidan jami depozitlar qiymati 11,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 3,7 trln so'm jismoniy shaxslar, 7,5 trln so'm esa yuridik shaxslar ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Orient Finans bankining jami depozitlari 10,035 trln so'mni tashkil etib, ulardan 3 trln so'm jismoniy shaxslarga, 6,9 trln so'm esa yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan.

Keyingi tahlilda faoliyat yuritayotgan raqamli banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar ko'rib chiqildi.

Anorbank tomonidan jalb qilingan jami depozitlar qiymati 6,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 4,7 trln so'm jismoniy shaxslarga, 2,1 trln so'm esa yuridik shaxslarga to'g'ri kelgan.

TBC Bank tomonidan esa 4,01 trln so'mlik depozitlar qabul qilingan bo'lib, shundan 3,7 trln so'mi jismoniy shaxslar, 298 mlrd so'mi esa yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri kelgan(8-rasm).



8-rasm. Raqamli banklarning depozitlar to'g'risida ma'lumot trln. so'm¹¹.

11 O'zR, Markaziy Banki, <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124992/>



Oktobank tomonidan 1,8 trln so'm miqdorida depozitlar jalb etilgan bo'lib, shundan 263 mlrd so'mi jismoniy shaxslar tomonidan, qolgan 1,5 trln so'm esa yuridik shaxslar tomonidan omonat sifatida bankka qo'yilganini ko'rish mumkin.

Smartbankka jami 9 trln so'mlik omonatlar qo'yilgan bo'lib, ushbu depozitlarning barchasi jismoniy shaxslar tomonidan shakllantirilganini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy iqtisodiyot postindustrial bosqichga o'tgan bo'lib, u ko'pincha innovatsion, bilimlarga asoslangan iqtisodiyot, vakolatlar va tarmoqlarning o'zaro integratsiyasi sifatida tavsiflanadi. Bu holat tasodifiy emas. Bugungi kunda dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonidan chetda qolish imkonsiz.

O'zbekiston ushbu raqamli jarayonlarni birinchi bo'lib boshlamagan bo'lsa-da, zamonaviy voqeliklarga tez moslashmoqda va raqamli iqtisodiyot yo'nalishida sur'at bilan harakat qilmoqda.

Dunyo bo'yicha 319 ga yaqin raqamli banklar faoliyat yuritmoqda va ular tomonidan aylanayotgan mablag'larning 90 % i elektron shaklda hisoblanadi. Naqd pul oqimlari va bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi, chunki bu yo'nalish uzoq vaqtdan beri global rivojlanish vektoriga aylangan.

Shu bois, bu tendensiyani e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Aksincha, unga iste'molchilar ham, butun iqtisodiyot ham tezlik bilan moslashishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. – T.: Innovatsion iqtisodiyot, 2021.
2. Subramanyam K.R. Financial Statement Analysis. Eleventh edition. Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014.
3. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: Moliya-iqtisod, 2015. – 316 b.
4. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma / M.Y. Raximov, N.N. Mavlanov, N.N. Kalandarova. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 517 b.
5. Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019.
6. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 476 b.
7. Aryantini S., Jumono S. (2021). Profitability and value of firm: An evidence from manufacturing industry in Indonesia.
8. Accounting, 7(4), 735–746. <http://leeds-faculty.colorado.edu/jere1232/Harrigan%20and%20Wing%20Corporate%20Renewal%20SI.pdf>
9. Upravlencheskiy ucher : ucheb. posobie / A.V. Ilyina, N.N. Ilysheva. – Yekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 2016. – 180 s.
10. Akbasheva D.M. Osobennosti ucheta zatrat i kalkulirovaniya sebestoimosti produktsii // Vestnik Evraziyskoy nauki / The Eurasian Scientific Journal, 2020, №6, Tom 12 / 2020, No 6. <https://esj.today>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
